



NOQULAY IQLIM SHAROITIDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALAR QO'LLASH ORQALI QISHLOQ XO'JALIGINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**



2025-yil 21-22-aprel

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR VA AGROBITEKNOLOGIYA FAKULTETI

AGRONOMIYA VA TUPROQSHUNOSLIK KAFEDRASI

**NOQULAY IQLIM SHAROITIDA ZAMONAVIY
AGROTEKNOLOGIYALAR QO'LLASH ORQALI
QISHLOQ XO'JALIGINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**

2025-yil 21-22-aprel

Buxoro – 2025

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ж.Х.Хўжаев. Ўсимликлар физиологияси. Т.: "Мехнат"-2004 й.
2. **Б.О.Бекназаров. О'симликлар физиологияси. - Т.: "Алоқачи" -2009 у.**
3. Jumanov, J. A., Abduxolliqov, F. B., & Ergasheva, N. A. (2021). SIRDARYO VILOYATI SHO'RLANGAN TUPROQLARIDA O'SIMLIKLARNI BARGI ORQALI OZIQLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI. *Журнал естественных наук*, 1(1).
4. Жуманов, Ж., Исмаилова, К., & Хидырова, Н. К. (2017). ВЛИЯНИЕ БИОПРЕПАРАТА УЧКУН НА РОСТ, РАЗВИТИЕ И УРОЖАЙНОСТЬ МОРКОВИ СОРТА "КРАСНЫЙ МУШАК". *Студенческий вестник*, (6-2), 25-27.
5. Smith J. *Effect of Auxins on Root Development in Tomato Plants*. Plant Physiology Journal. 2018
6. Lee K. *Cytokinin-induced cell division in Brassica under controlled conditions*. Journal of Plant Growth Regulation. 2022
7. Zhang L. *ABA Regulation under Drought Stress in Arabidopsis*. Environmental Plant Biology. 2021
8. Japan Agricultural Society. *Use of Gibberellins in Grape Farming*. Tokyo. 2020
9. FAO Plant Hormones Database (2023). [www.fao.org]
10. Tanaka K. Cytokinin signaling and stress tolerance mechanisms in plants. *Frontiers in Plant Science*. 2023
11. U.T.Norboyeva, J.A.Jumanov. Sirdaryo viloyati tuproqlar sharoitida g'o'zaga biopreparatlarni qo'llash orqali uning suv rejimi va hosildorligiga ta'sirini o'rganish// PEDAGOG (7), 2024/5/21
12. Huang L. Effect of cytokinin on water use efficiency under drought stress. *Nature Plants*. 2023
13. Kato M. Cytokinin-auxin interaction in organogenesis and regeneration. *Plant Physiology*. 2022
14. Jiang Y. Development of synthetic cytokinin analogs and their effects on plant growth. *Journal of Experimental Botany*. 2023

BUXORO VILOYATINING SUG'ORILADIGAN TUPROQLARIDA QOVUN O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEKNIKASI

BuxDU Agranomiya va tuproqshunoslik kafedrası dotsenti b.f.f.d. (PhD)

Otabek Umarov Rafoilovich

BuxDU Agranomiya va tuproqshunoslik kafedrası o'qituvchisi

Alimov Muhammad Mo'min o'g'li

BuxDU Agranomiya ta'lim yo'nalishi magistranti

Rajabov Muhammadali O'ktam o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi sug'oriladigan tuproqlarda qovun ekininig agrotexnikasi haqida ma'lumotlar berilgan. Hududning tuproq-iqlim sharoitlari, nav tanlash, ekish muddatlari, parvarishlash usullari, sug'orish rejimi va hosildorlikka ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan

Kalit so'zlar: Qovun, fuzarioz , agrotexnika, kultivatsiya tuproq-iqlim sharoiti, organik-mineral o'g'itlar, ertapishar, o'rtapishar, kechpishar, ekish muddati, struktura, kuzgi shudgor, kompost, nam sig'imi.

Абстрактный. В статье дана информация об агротехнических аспектах возделывания дыни на орошаемых землях Бухарской области. Проанализированы почвенно-климатические условия региона, выбор сортов, сроки посадки, способы ухода, режим орошения, факторы, влияющие на урожайность.

Ключевые слова: Дыня, фузариозное увядание, агротехника, почвенно-климатические условия возделывания, органоминеральные удобрения, раннеспелость, среднеспелость, позднеспелость, срок посадки, структура, зяблевая вспашка, компост, влагоемкость.

Abstract. This article provides information on the agrotechnical aspects of melon cultivation on irrigated soils in the Bukhara region. The soil-climatic conditions of the region, variety selection, planting dates, care methods, irrigation regime, and factors affecting yield are analyzed.

Keywords: Melon, fusarium, agrotechnics, cultivation soil-climatic conditions, organic-mineral fertilizers, early ripening, mid-ripening, late ripening, planting date, structure, autumn plowing, compost, moisture capacity.

Kirish. Qishloq xo'jaligida islohotlar izchil amalga oshirilayotgan hozirgi davrda aholini dehqonchilik mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish va bu boradagi ta'minotni tubdan yaxshilash eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Buni muvaqqiyatli hal etishda, ayniqsa mahsulotlarni birlamchi qayta ishlashdek muhim vazifaga alohida e'tibor berilishi talab qilinadi. Polizchilik qishloq xo'jaligining qovun, tarvuz, qovoq yetishtiradigan tarmog'i sanaladi. Poliz mahsulotlarining to'yimlilik va parhez oraliq qimmatini tarkibida ko'p miqdorda oson o'zlashtiriladigan karbonsuvlar, shakarlar, vitaminlar va mineral tuzlar borligi bilan belgilanadi. Hususan qovun tarkibida saxarova, tarvuz tarkibida esa fruktoza ko'p bo'ladi. Respublikamiz poliz mahsulotlarini yetishtirib beruvchi eng yirik markazlardan biridir. Mamlakatimizda shirinligi va va boshqa sifatleri bilan ajralib turuvchi qovun va poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Respublikamizda poliz ekinlari oziq-ovqat, yemxashak va texnika maqsadlarida ekiladi. Qovun ekini tuproqning mexanik va ximik xossalari, uning unumdorligiga juda talabchan o'simlikdir. Havo va namlikni yaxshi o'tkazadigan g'ovak tuproqlarda Qovun ekini juda yaxshi natija beradi. Organik va mineral o'g'itlarga boy bo'lgan hamda bog' va tokzorlardan yangi bo'shagan yerlarga ekilgan qovun ekini kasallikka chalinmay, yuqori hosil beradi. Qovun ekinidan yuqori hosil olish uchun almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish zarur. qovun ekinining yaxshi unib rivojlanishida o'tmishdosh ekinning ahamiyati katta. Qadimdan qovun ekini yangi o'zlashtirilgan qo'riq va bo'z yerlarda ekib kelingan. Ko'p yillik beda qovun o'simligi uchun yaxshi o'tmishdosh ekin hisoblanadi. Ko'p yillik beda tuproq strukturasi yaxshilaydi, unumdorlikni oshiradi. Qovun ildizi joylashgan tuproq qatlamida ko'p miqdorda chirindi, nitrat va fosforli elementlar miqdori ortadi. Ko'p yillik beda ekilgan yerlarda begona o'tlar ham kam bo'lib, qovun o'simligi uchun eng xavfli kasallik- fuzarioz so'lish kasalligini tarqatuvchi zamburug'lar kam bo'ladi.

Qovun o'simligini yetishtirishda yerni tayyorlash barcha agrotexnika chora-tadbirlarining naf berishida muhim shartdir. Yerga belgilangan muddatlarda va qovun o'simligining xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlov berish kerak. Qovun ekinini ekish uchun yerni tayyorlash yuzasidan bajariladigan asosiy ish kuzgi shudgordan boshlanadi. O'tmishdosh ekinlardan barvaqt bo'shagan sug'oriladigan yerlarga avval suv quyiladi, so'ngra T-4A chopiq traktorida tirkalgan chKU-4 markali chisel- kulyivator bilan yer yumshatib chiqiladi. Yerni haydashdan oldin RTT-4,2 o'g'it solg'ich syelka bilan mineral o'g'itlar va RTO-4 mashinasi yordamida o'g'itlar solinadi. Kuzda 30 sm chuqurlikkacha shudgor qilish uchun odatda, to'rt korpusli PLCh-4-35 osma plug, qo'sh yarusli qilib haydash uchun qo'shyarusli 4 korpusli, chuqur haydagichli (40 sm) PD-4-35 pluglar qo'llaniladi. Ko'p yillik begona o'tlar bilan ifloslangan yerlarda kuzgi shudgorlash oldidan tuproqni yumshatmasdan oldin VKS-1,8 mashina vositasida o'tlar ildizlari tirmalab, yig'ishtirib olinadi. Buzilgan pushta va egatlar GN-2,8 tekislagich-greyder yordamida tekislanadi. Erta bahorda yog'inlar tufayli to'plangan namlikni saqlab qolish uchun yer maydoniga 6-8 sm chuqurlikda ishlov beriladi. Tuproqning turi va holatiga qarab, og'ir yoki o'rta vaznli tirkamalardan foydalaniladi. U shudgorlash yo'nalishiga nisbatan biroz qiyalatib solinadi. Ekish oldidan yer maydoni ChKU-4 kultivatori bilan 18-20 sm chuqurlikda chizellanadi. Yerni tekislash uchun VP-8 tekislagichdan foydalaniladi. Qovun ekini erta muddatlarda (aprelda) ekilganda yerni bahorda qayta haydashning hojati yo'q. Bu ekin kechki muddatlarda (may oyi oxirlarida) ekilganida qayta haydash zarurati tug'iladi. Chunki ekish paytida tuproq zichlashadi va uni begona o'tlar bosib ketadi. Bu holda yerni ag'darmasdan turib, yana 22 sm chuqurlikda haydab chiqish zarur bo'ladi. Qovun ekini ekiladigan maydonga kuzgi shudgorlash oldidan 15-20 t/ga go'ng yoki kompost, fosforli o'g'itlarning yillik normasidan 75 % va kaliyli o'g'itlarning to'liq normasini solish tavsiya etiladi. Fosforli o'g'itlarning qolgan qismi (25 %) ekish oldidan solinadi. Azotli o'g'itlarning 50 % ekish oldidan yoki ekish bilan birga, qolgan qismini esa o'simliklar 3-4 ta chinbarg yozganda oziqlantirish uchun

solish kerak. O'g'itlarni solish me'yori va muddatlariga amal qilinishi, qovun ekinidan yuqori sifatli va shirin mevalar olinishini ta'minlaydi.

Urug'ni tayyorlash. Ekish uchun to'liq urug'lar olinadi. Urug'lar 3-5 % li osh tuzi eritmasiga solinib, eritmada cho'kkan urug'lar tanlab olinadi. Saralangan urug'lar toza suvda yuvib tashlanadi. Urug'ni ekish oldidan ivitish tavsiya etiladi. Buning uchun urug'lar tez-tez almashtirilib turiladigan iliqroq suvda 8-10 soat davomida ivitilishi lozim. Urug'ni ekishdan oldin sal quritib olish maqsadga muvofiq, chunki bunda ular sepiluvchan bo'ladi. O'simliklar kasalliklarga chalinishini oldini olish maqsadida urug'larni ekish oldidan o'simlikka biogen ta'sir etuvchi moddalarning suvli eritmasida ivitishmetilen ko'ki (metilenovaya sin) -12 litr suvga 4 gramm modda hisobida; salitsil 20 kislotasi -1 litr suvga 0,1-0,5 mg va mikroelementlar eritmasida ivitish (0,1-0,5 % li bor kislotasida); 0,02-0,05 % li marganets sulfat tuzida; 0,005-0,01 % li kobalt sulfat tuzi yoki 0,02-0,04 % li alyumin-molibdat nordon tuzi eritmasida ivitish ularning o'sishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Qovun o'simligi urug'lari tuproqning 4-6 sm chuqurlikdagi harorati +15+18o S darajaga yetganida ekishga kirishiladi. 1ga maydonga 3-4 kg qovun urug'i sarflanadi.

**Buxoro viloyatida tuproq-iqlim sharoiti va navlar xususiyatiga ko'ra
qovun ekini quyidagi muddatlarda ekiladi:**

Navlar	Ertapishar	O'rtapishar	Kechpishar
Ekish muddatlari	1-10 aprel	10-20 aprel	1-10 iyun
Vegetatsiya muddati	65-85 kun	85-100 kun	100-120 kun

Ekish muddatlari mahsulot pishib yetilishi vaqtiga ham bog'liq, binobarin, qovunning qishda saqlanadigan kechki navlari may oyi oxiri -iyun oyi boshlarida ekiladi, bunda hosilning ko'p qismi sentabr-oktabr oyida yetiladi. Ekish chuqurligi urug'larning mayda-yirikligiga, ekish muddatlariga, tuproqning namligi va tarkibiy xususiyatlariga bog'liqdir. Buxoro viloyatining sug'oriladigan yerlarida ariqlar orqali sug'orishda qovun ekini lentasimon qo'shqatorlab ekish usuli qo'llaniladi. Bunday usulda tor qator oralari (0,7-0,9 m) va keng pushtalar (2,1-3,6 m) navbatma-navbat joylashadi. Tor qator oralaridan sug'oriladigan egatlar olinadi, pushtalarda o'simlik palaklari joylanadi. Qo'sh qatorli lentasimon: 210+70 x 70 sm va 280+70 x 70 sm usullari va bir qatorli 180 x70 usuli Bunda, 1 gektardagi o'simliklar soni tegishli ravishda qovun 8-10 ming dona bo'ladi.

Qovun ekinini parvarish qilish tuproqni yumshatish, o'simliklarni yaganalash, ekinni oziqlantirish, chopiq qilish, sug'orish, palaklarini to'g'rilash, begona o'tlar va zararkunandalarga qarshi kurashni o'z ichiga oladi. Bahor yomg'irli bo'lganda tuproq qatqalog'ini yumshatish zarurati tug'iladi. Urug'lar unib chiqmasidan oldin qatqaloqqa qarshi kurashish uchun MVN-2,8 yoki MVX-5,4 markali rotatsion motigalaridan foydalanish mumkin. Nihollar yalpi unib chiqishi bilan qatqaloqni yumshatish uchun KRX-3,6; KNB-5,4 kultivatorlari yoki MUB-5,4 mashinasiga osilgan rotatsion yulduzchalar ishlatiladi. O'simliklar birinchi chinbarg chiqarganda birinchi yaganalash o'tkaziladi, bunda har bir uyada 2 tadan o'simlik qoldiriladi. Uyada qoldiriladigan o'simliklarga shikast yetkazmaslik uchun yagana qilinadigan o'simlik qirqib olinadi. Xatosiga ivitilib, nishlagan urug'lar ekib chiqiladi. O'simliklar 3-4 chinbarg chiqarganda har bir uyada bitta rivojlangan o'simlik qoldirilib, ikkinchi yaganalash o'tkaziladi. Yaganalash bilan birga ekinlar chopiq qilinadi, bunda o'simlik atrofidagi tuproq yumshatilib, begona o'tlar yulib tashlanadi. Ikkinchi chopiq 25-30 kundan keyin, o'simliklar gullashidan oldin o'tkaziladi. Nihollar yalpi unib chiqishi bilan qator oralarini yumshatishga kirishiladi. Sizot suvlari chuqur joylashgan yerlarda birinchi sug'orishgacha bir marta, yer osti suvlari yaqin joylashgan maydonlarda esa ikki marta kultivatsiya qilinadi. Keyingi kultivatsiyalar sug'orishlardan keyin, tuproq yetilishi bilan o'tkaziladi. O'suv

davri davomida 4-5 kultivatsiyalanadi va har safar o'simlik himoya zonasi oshirib boriladi. Sug'orish egatlari KRX-3,6; KRX-4,2; KRN-5,6; KNB-5,4 kultivatorlari yordamida, 3 qatorli ekish usullarida esa MUB-5,4 mashinasida olinadi. O'simliklarni oziqlantirishda ham shu markali kultivatorlar qo'llaniladi. Traktor va agregatlarning o'simliklarga shikast yetkazmasdan o'tishi uchun kultivatordagi pleteukladchiklar yoki NBCh-5,4 universal moslama komplek-siga kiradigan chilpigich yordamida qovun palaklarini chilpish maqsadga muvofiqdir.

Qovun o'simligi namga o'rtacha talabchandir. Ular yer sathi quruq bo'lgan va o'simlik ildizlari joylashgan tuproqning namligi yetarli bo'lgan joylarda yaxshi o'sib, rivojlanadi. Tuproqning o'ta nam bo'lishi o'simlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buxoro viloyati sharoitida qovun o'simligi ko'pincha sug'orib yetishtiriladi. Buning uchun suv oqadigan ariqlar urug' ekish bilan bir vaqtda 22-24 sm chuqurlikda qirqiladi. Ariqlarni bunday chuqurlikda olish o'simlik ildizi atrofida namni ko'proq to'planishiga imkoniyat yaratadi. Natijada o'simlik yaxshi rivojlanib, palagi kasalliklardan saqlanadi. Shuning uchun, qovun o'simligi o'suv davrida o'simlik ildizi joylashgan tuproq qatlami doimo nam, o'simlik palagi yoyilib yotadigan qatlami quruq bo'lishi kerak. Tuproq namligining yuqori bo'lishi o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. qovun o'simligi uchun tuproq namligi quyidagicha bo'lishi kerak: yozgi eti qattiq qovunlar uchun tuproqning sug'orishdan oldingi namligi tuproq dala nam sig'imi bo'yicha 60-65-60 %, yoki 65-70-75 bo'lishi kerak. Tuproqning bunday namligiga gektariga 600-700 m³ miqdorida 3-4 marta sug'orish bilan erishiladi. Bu sug'orish sxemasi 0-2-1 yoki 1-2-1 hisobida belgilanib, gullash fazasidan oldin-0, qiyg'os gullash fazasida-2, meva tugish davrida-1 marotaba sug'orish demakdir.

ADABIYOTLAR

1. X.Ch.Bo'riev, O.A.Ashurmetov «Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi», T.: «Mehnat» 2000.
- 2.X.Ch.Bo'riev, V.I.Zuev, A.A.Umarov «Polizchilikdan amaliy mashg'ulotlar» T.: «Mehnat» 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi hududida yetishtirish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlar davlat reestri, Toshkent, 2006
- 4.R.A.Xakimov, M.Xalimova, F.Rasulov, C.C.Alimuhammedov. " Qovundan yuqori sifatli hosil yetishtirish agroteknologiyasi bo'yicha tavsiyalar.
- 5.R.A. Hakimov, A.C. Hakimov, A.A.Toshmuhammedov Sabzavot poliz ekinlari urug'chiligi. Toshkent, 2003.
- 6.B.O.Abdulniyozov, G.S. Gulimov Xorazm qovunlari. Urganch, 2008

UDK 631.3(575.1)

G'ALLA O'RISH-TASHISH TIZIMI TEXNIKALARINI SAQLASH USULLARI

(PhD) v.b dotsent

J.Sh.Achilov

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE TOSHKENT FILIALI

achilovjamolidin@gmail.com

Annotatsiya. G'alla o'rish – tashish tizimi texnika vositalarini saqlash metodologiyasi va texnologiyasini asoslash muhim vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan ushbu maqolada g'alla kombayn va yuk avtomabillarni saqlash va ish unumini oshirishga qaratilgan. Tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'rish-tashish texnikalari va ularning ko'p sonli qismlari kabi mashinalarni saqlash uchun ideal sharoitlarni yaratish deyarli mumkin emas. G'alla o'rish – tashish tizimi texnika vositalarini saqlash uchun maqbul sharoitlarni tanlashlari kerak bo'ladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, saqlash, mashina, korroziya, fermer xo'jaliklari, agroklastarlar, o'rish-tashish, ish unumi, texnik xizmat ko'rsatish.

Аннотация. Важной задачей является обоснование методологии и технологии хранения технических средств уборочно-транспортной системы зерна. В этом отношении данная статья направлена на хранение и повышение производительности зерноуборочных комбайнов и грузовых автомобилей. Опыты и наблюдения показывают, что практически невозможно

MUNDARIJA

Xamidov Obidjon Hafizovich. KIRISH SO'ZI	3
1-sho'ba. QISHLOQ XO'JALIGIDA QO'LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALAR VA SOHAGA OID MAVJUD MUAMMOLAR.....	5
Sharipov San'at Sulaymonovich, To'xtaev Shonazar Hojiyevich, Xayrullaev Muhriddin Faxriddin o'g'li, Odilov Shaxriyor Erkin o'g'li BUXORO VILOYATI SHAROITIDA POLIZ BITINING ZARARI VA ULARGA QARSHI ZAMONAVIY KURASH CHORALARI	6
Остонакулов Т. Э., Исламов А. Ж., Расулов Ф.Ф. ШИРИН ҚАЛАМПИР ДАР ТАШКЕНТА НАВИ ҲОСИЛДОРЛИГИГА ЎЎТИЛАШ МЕЪЁРЛАРИ ВА ЎСТИРУВЧИ СТИМУЛЯТОРЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ	9
Остонакулов Т. Э., Мейлиева Ҳ. Ш., ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАНДА БОДРИНГ ДУРАГАЙЛАРИ ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАНДА ЭКИШ СХЕМАСИ ВА ЎЎТИЛАШ МЕЪЁРИ	12
Нуриллаев И. Х., Жаббаров Б. Ш., Остонакулов Т. Э., САБЗАВОТ (ШИРИН) МАККАЖЎХОРИ АЖРАТИЛГАН МОСЛАНУВЧАН НАВ ВА ДУРАГАЙЛАРИ ЎСИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ЭКИШ МУДДАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ	16
R.Yunusov, O.U.Muradova Intensiv olma bog'larida bir yillik novdalarining uzunligi va hajmi nav-payvandtag hamda ko'chat qalinligidan bog'liqligi.....	20
Тошпулатова С. Т., Остонакулов Т. Э., Амантурдиев И. Х., ЭРТАГИ КАРТОШКА НАВЛАРИНИНГ ФОТОСИНТЕТИК ФАОЛЛИГИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИ	24
Tilavov X. M., Amirov X. S., Ostonaqulov T. E. QOVUN QOQI HOSILDORLIGI VA SIFATIGA SUG'ORISH TARTIBOTLARINING TA'SIRI.....	27
Atayeva Zamira Alimovna., Yaxyoyeva Mehrinoz Qobilovna BUXORO VILOYATI SHAROITIDA QO'ZIQORIN YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI.	29
О.Р.Умаров, З.Х.Бафоева, Қ. Қахҳоров, Н.Остонова АЗОТЛИ ЎЎТИЛАР МЕЪЁРИНИНГ БУХОРО- 6 ҒЎЗА НАВИНИНГ ФОТОСИНТЕЗ СОФ МАҲСУЛДОРЛИГИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ	32
Ostonaqulov T. E., Chorshanbiyev P.X., Qovoq nav va duragay namunalari urug'ining unish quvvati, laboratoriya va dala unuvchanligi	34
Остонакулов Т. Э., Тўйчиев Ш. Ш., Исмойлов А.А. ПОМИДОР МУСТАҚИЛЛИК-28 НАВИ ҲОСИЛДОРЛИГИНИ ТУРЛИ ЎЎТИ МЕЪЁРЛАРИ ВА ЎСТИРУВЧИ СТИМУЛЯТОРЛАРДА ЎРГАНИШИ	37
РОМИДОР КО'ЧАТЛАРИНИ YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI	40
Умирова Д. М., Остонакулов Т. Э., ЎТА ЭРТАГИ ТАРВУЗНИНГ ВАҚТИНЧАЛИК ҲИМОЯЛАНГАН ЖОЙЛАРДА ЕТИШТИРИШГА МОС НАВ ВА ДУРАГАЙЛАРИ	43
Sharipov San'at Sulaymonovich. Avezov To'liq Tavakkalovich, Xayrullayev Muhriddin Faxriddin o'g'li Buxoro viloyati sharoitida oltinko'z entomofagini ko'paytirish texnologiyasi	46
Kamalov Sherzodbek Sabirovich AGRICULTURAL DIGITALIZATION AND TECHNOLOGY IMPLEMENTATION.....	49
Jonimqulov Toxir Ibragim o'g'li Qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan zamonaviy agrotekhnologiyalari.	55
I.A.Raxmonov, B.E.Xolboyev, A.Yo. Karimova ISSIQXONALARDA O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISHDA TOMCHILATIB SUG'ORISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISH.	57
Akbarov Mirjamol Mirodilovich Resistance of root crop varieties (carrots, turnips, radishes) to .	60
Komilova Maftuna Anvarovna Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida mos tarvuz navlarini yetishtirish uchun yerlarni tayyorlash.	64
Safarov Elyor, Olimov Bobir Komiljon o'g'li, Abduvahobov Azizbek – talaba, Xasanboyev Shoxrux – talaba Sholi quritish jarayonini avtomatlashtirish	67
Odilova Zulayxo Zoxidjon qizi, Obidov Muzaffarjon Valijonovich BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYASI ASOSIDAGI PREPARATLARNING ZARARKUNANDA HASHAROT AGROTIS SEGETUMGA TA'SIRI	70

Bahodirov G'iyosbek Murodjon o'g'li ZAMONAVIY HAYOTIMIZDA QISHLOQ XO'JALIGI TEKNIKALARINING O'RNI	73
Usmonova Muhayyoxon Sobirjon qizi, Tursunova Shaxodatxon Abdujaborovna CALCULATION OF THE STAGES OF THE HEART CYCLE IN STUDENTS ACCORDING TO THE QUASS- TEST	75
Джамалова Асаль Сайдувалиевна ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПРОИЗВОДСТВА КАРТОФЕЛЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЕДУЩИХ СТРАН И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	77
To'xtasinov Farhod Raxmonberdiyevich, Abduqayumova Sayyora Nematjon qizi MELOIDOGYNE AVLADI NEMATODALARINING AYRIM SABZAVOT POLIZ EKINLARIDA ZARARLILIK DARAJASINI O'RGANISH.....	80
Odilova Zulayxo Zoxidjon qizi, Obidov Muzaffarjon Valijonovich BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYASI ASOSIDAGI PREPARATLARNING AGROTIS SEGETUM GA TA'SIRI	82
Jumanov Jo'rabek Abdusalol o'g'li O'SIMLIKLAR O'SISHINI RAG'BATLANTIRUVCHI FAOL BIRIKMALAR.	85
Otabek Umarov Rafoilovich, Alimov Muhammad Mo'min o'g'li, Rajabov Muhammadali O'ktam o'g'li Buxoro viloyatining sug'oriladigan tuproqlarida qovun o'simligini yetishtirish agroteknikasi	88
J.Sh.Achilov G'alla o'rish-tashish tizimi texnikalarini saqlash usullari	91
Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li RESPUBLIKADA BUG'DOY YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI	94
Jamoliddinova Yulduz Shavkatovna Qovoqning non kadi (<i>Cucurbita Pepo</i>) va olma (<i>malus</i>)ning semerenko navidan mahalliyashtirilgan sharbat olish texnologiyasi.....	96
Ikrom Raxmonov, Hakimova Diyora Tomchilatib sug'orish tizimi qo'llanilgan dalalarda yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar va ularning yechimlari	100
To'xtayev Boboqul Yorqulovich, Xo'jamqulov Oxunjon Raxmatullo o'g'li, To'raqulova Odinaxon Sobirqul qizi MIRZACHO'L SHAROITIDA RUBIA TINCTORUM L O'SIMLIGINI BIOMORFOLOGIYASI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI	101
Tursunova Shaxodatxon Abdujaborovna, Usmonova Muhayyoxon Sobirjonovna O'simliklar ildizlarining algoflora tahlili va suvo'tlarning tuproq unumdorligidagi oshirishdagi roli.	104
Ostonaqulov T. E., Chorshanbiyev P.X., Qovoq nav va duragay namunalari urug'ining unish quvvati, laboratoriya va dala unuvchanligi	106
Хурсанов Хайрулло Жўрақулович ТАМАКІ ЭКИНИГА ЗАРАР КЕЛТИРУВЧИ ҒЎЗА ТУНЛАМИ ВА УЛАРГА ҚАРШИ КИМЁВИЙ КУРАШ	110
Абдуғофурова Озода ҚАНД ЛАВЛАГИНИ НОАНАВАВИЙ ЭКИШ УСУЛИДА ТЕКИС КЎЧАТ ОЛИШ	115

2-sho'ba. TUPROQ DEGRADATSIYASI NATIJASIDA HOSIL BO'LGAN

MUAMMOLAR VA ULARNING BARTARAF QILISHNING ILMIY ASOSLARI ... 118

Sharipov Odiljon Bafoyevich., Jo'rayeva Umida Faxriddinova SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING BIOLOGIK UNUMDORLIGINI OSHIRISH	119
Kuralova Rano Mirzaaliyevna, Khusanov Tokhir Sunnatovich ANTAGONISTIC PROPERTIES OF BACTERIA IN THE ROOT SYSTEM OF GLYCYRRHIZA GLABRA L	121
Nazarova Sevara Mustakimovmovna, Ismoilova Yulduzxon G'ulom qizi CHO'L TUPROQLARIDA DEGRADATSIYA HOSIL QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI YAXSHILASH YO'LLARI	124
Artikova Hafiza To'ymurodovna ¹ , Sayfiyeva Elmira Sodiq qizi ² BUXORO VOHASI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARI VA XOSSA XUSUSIYATLARINI TAHLILI	126
Курвантаев Р. Назарова С.М. ҚОРАКЎЛ ВОҲАСИ СУҒОРИЛАДИГАН ЎТЛОҚИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ АГРОФИЗИКАВИЙ ҲОЛАТИНИ ТАДҚИҚИ.....	130
Nazarova Sevara Mustakimovna, Avliyokulov Zarifjon Ramazon ogli ANALYSIS OF SOILS OF BUKHARA REGION, WAYS OF IMPROVEMENT	136